

Mobil ilova “BRB” maxfiylik siyosati

Ushbu Maxfiylik siyosati (keyingi o‘rinlarda – Siyosat) “BRB” mobil ilovasi (keyingi o‘rinlarda – Ilova) foydalanuvchining qurilmasidan olingan ma’lumotlarga nisbatan qo‘llaniladi. Ushbu ma’lumotlar “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat banki (keyingi o‘rinlarda – Bank) tomonidan foydalanuvchi Ilovadan foydalanganda olinishi mumkin.

Ilovadan foydalanish foydalanuvchining ushbu Siyosat bilan va unda ko‘rsatilgan ma’lumotlarni qayta ishlash shartlari bilan so‘zsiz roziligini bildiradi. Agar foydalanuvchi Siyosat shartlariga rozi bo‘lmasa, u holda Ilovadan foydalanishdan tiyilishi kerak.

Ilova va undagi xizmatlar foydalanuvchiga Bank bilan tuzilgan shartnomalar va kelishuvlar asosida taqdim etiladi. Ushbu hujjatlar foydalanuvchining shaxsiy ma’lumotlarini qayta ishlash va saqlash masalalarini ham tartibga soladi.

Ushbu Siyosat faqat Ilovaga nisbatan qo‘llaniladi. Bank uchinchi tomon resurslariga foydalanuvchi tomonidan yuborilgan ma’lumotlar uchun (yoki ularning oqibatlari uchun) javobgar emas, agar bu ma’lumotlar Ilovadan o‘tish orqali uchinchi tomon saytiga yuborilgan bo‘lsa.

Bank ushbu Siyosatga o‘zgartirishlar kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Yangi tahrir Bank veb-saytida va/yoki Ilovada joylashtiriladi. Foydalanuvchi amaldagi tahrir bilan mustaqil tanishish uchun javobgardir.

1. Foydalanuvchi qurilmasidan olinishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlar tarkibi va ularni olish maqsadi

1. 1.1. Foydalanuvchining kontakt ma’lumotlari (telefon kitobi yoki manzil daftari)

Maqsad: Foydalanuvchining kontakt ma’lumotlari pul o‘tkazmalarini amalga oshirish jarayonini soddalashtirish uchun ishlatiladi. Ilovani o‘rnatishda foydalanuvchi telefon raqamlari ma’lumotlarining ishlatilish maqsadi haqida alohida xabardor qilinadi. Telefon raqamlari Bank serverlariga nusxalanadi va vaqti-vaqti bilan yangilanadi.

2. 1.2. Foydalanuvchi qurilmasining joylashuvi (mobil operator tarmog‘i yoki GPS ma’lumotlari asosida)

Maqsad: Foydalanuvchini Bank filiallari va o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish qurilmalari joylashuvi haqida xabardor qilish, shuningdek foydalanuvchining joylashuviga qarab qo‘shimcha xizmatlarni taklif etish.

3. 1.3. Qurilma kamerasidan yoki fayl menejeridan olingan tasvirlar

Maqsad: Ilova xizmatlari doirasida tasvirlardan foydalanish, masalan foydalanuvchi profilida rasm saqlash, to'lov hujjatlari yoki shtrix-kodlarni tanib olish va ularni to'lov operatsiyalarida ishlatish.

4. 1.4. Qurilmaning operatsion tizimi versiyasi va modeli

Maqsad: Ilovadagi xatoliklarni tahlil qilish va uni takomillashtirish. Tahlil maqsadida Bank operatsion tizim va qurilma modeli haqidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga shaxsiy identifikatsiyasiz shaklda uzatishi mumkin.

5. 1.5. Foydalanuvchining IP-manzili va tarmoq ulanish nuqtasi manzili

Maqsad: Ilovadan foydalanish va moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish jarayonida xavfsizlikni oshirish.

6. 1.6. Foydalanuvchi qurilmasidagi SMS-xabarlar

Maqsad: Bankdan (2600 raqamidan) yuborilgan SMS-xabarlarni Ilovada saqlash va ulardan foydalanish.

7. 1.7. Qurilma mikrofoni orqali olingan audio ma'lumotlar (texnik imkoniyat bo'lsa)

Maqsad: Ilova orqali Bankka audio qo'ng'iroqlarni amalga oshirish.

2. Foydalanuvchi ma'lumotlarini qayta ishlash shartlari

8. Bank ushbu Siyosatda ko'rsatilgan maqsadlar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni qayta ishlaydi.
9. Bank foydalanuvchi ma'lumotlarini uchinchi shaxslar tomonidan noqonuniy kirish, nusxalash yoki tarqatilishidan himoya qilish uchun zarur tashkiliy va texnik choralarni ko'radi.
10. Bank ushbu Siyosatda belgilangan maqsadlar uchun hamkorlarni jalb qilishi mumkin. Bu hamkorlar bilan maxfiylik to'g'risida tegishli shartnomalar tuzilgan bo'ladi. Ilova ishlashini yaxshilash uchun foydalanuvchi ma'lumotlarining anonim shaklda uzatilishi shartnoma asosida amalga oshiriladi.
11. Foydalanuvchi ma'lumotlari Bank va uning hamkorlari serverlarida foydalanuvchi bilan tuzilgan shartnoma amal qilgan davr mobaynida, hamda shartnoma bekor qilinganidan keyin 5 yilgacha saqlanishi mumkin.
12. Foydalanuvchi ma'lumotlari amaldagi qonunchilikka muvofiq davlat organlariga taqdim etilishi mumkin.

09-03-2023